



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

- c. Edebi san'atlar konusunda diqqatli olmamak
 - d. Arapça ve Farsça dil kurallarına tam olarak hakim olmamak
 - e. Nevai'nin diğər bilimlerden ve halk kùltürü ile gelenek-göreneklerinden yararlanmasına yeterince diqqat etmemek
 - f. Beyit kavramının doğru anlaşılmamasından dolayı el yazmalar arasında farklılıq olduğı durumunda yanlış kelime seçimi
2. İranlı Türk araştırmacıların Türkçe, Farsça ve Arapça üç dile hakim olmaları ve eski yazı hattını korumaları nedeniyle diğər araştırmacılara göre daha fazla puana sahip oldukları görülmektedir. Öte yandan Nevai'nin Fars dilinin büyük eserlerine olan ilgisi ve bu eserlerden etkilendiğı de inkar edilemez. Bu nedenle İranlı Türk araştırmacılardan yardım almak ve onlarla işbirliğı yapmak Nevai'nin eserlerinin tashihinde oldukça faydalı olabilir.

Kaynaklar:

A. Elyazmalar

1. Hamse-yi Nevai. **450**. Amerika, Michigan Üniversitesi.
2. Külliyyat-Nevai C1. **316**. Fransa, Parsi Milli Kütüphanesi.
3. Külliyyat-Nevai. **808**. Türkiye, İstanbul, Topkapı Sarayı Müzesi
4. Külliyyat-Nevai. **1501**. İran, Tebriz Milli Kütüphanesi.

B. Kitaplar

5. **Divan-i Hafiz, C1**. Hâfiz-i Şîrâzi, Şemseddin Muhammed. Tashih: Perviz Natel Hanleri. Tahran: Harezmi Yayınevi, 1983.
6. *Hayrat-ul Abror*. Navoiy, Alisher. Tashkent: Tamaddun nashriyoti, 2021.
7. *Hayrat ul-Abror*. Navoiy, Alisher. To'plab nashrga tayyorlovchi: Qayumov, Aziz. Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.

NAVOIY ASARLARIDA TINISH BELGILARINING YANGLISH ISHLATILISHI

Altay Noorullah Nematullah

Afg'oniston Islom Amirliğı, Javzijon universiteti dotsenti

Altaynoor61@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/UBTS8013

Annotatsiya. Ushbu maqolada milodiy 1988-2003-yillar ichida chop etilgan Navoiyning "Mukammal asarlar to'plami"dan o'rin olgan "Xazoin-ul-maoniy" (3-6-jildlar) misolida o'zbek tili va adabiyotining buyuk siymosi Mir Alisher Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilganligi natijasida bu asarlarni o'qish va tushunish qiyinlashganligi hamda Navoiyni o'zbek kitobxonlaridan ajratib qo'yib, hozirgi davr kitobxonalari Navoiy asarlarini "tarjima"da (nasriy bayonda) o'qishga majbur bo'lganliklarining sabablarini misollar bilan ochib berishga harakat qilindi. Navoiy asarlarini o'qiyotib, undagi yanglish ishlatilgan tinish belgilarini ko'rib shu xulosaga keldikki, Navoiy asarlarini chopga tayyorlash jarayonida kerakli diqqat ko'rsatilmagan. Matnshunos olimlarimiz qo'lyozma nusxalarni bayozga ko'chirayotganda tinish belgilarini baytlarning sintaktik tarkibi va mazmunidan kelib chiqib emas, balki umumiy qoida qilib baytning birinchi misrasi oxiriga vergul, ikkinchi misrasi oxiriga nuqta qo'yanlar. Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar ko'p o'rinlarda vergul bilan ajratilmagan va baytlardan mazmun chiqarishda tavakkal qilishga yo'l qo'yilgan va natijada kitobxonalarda "Navoiy xoslar shoiri, uning asarlarini faqat sanoqli mutaxassis olimlarga o'qib tushuna oladi, xalos" degan soxta tasavvur paydo bo'lgan.

Kalit so'zlar. *Tinish belgilari, vergul, tire, matn, matnshunoslik, yozma nutq, sintaktik qurilma.*

Abstract. *This article discusses the issues arising from the incorrect use of punctuation marks in the works of the great figure of Uzbek language and literature, Mir Alisher Navoi, particularly in the example of Khazoyin-ul-Maoniy (volumes 3-6) from the Mukammal Asar Tarjimai (Complete Works) published between 1988 and 2003. It highlights how the improper use of punctuation has made it more difficult to read and understand these works, and how this issue has led to a separation between Navoi's works and the Uzbek readership. Consequently, contemporary readers are forced to read Navoi's works in "translation" (prose expression). The article examines specific examples to uncover the reasons for this challenge. By reviewing the incorrectly used punctuation marks in Navoi's works, the article concludes that insufficient attention was given during the publication process. Scholars involved in preparing the manuscripts for print did not follow the syntactic structure and meaning of the verses when inserting punctuation. Instead, they adhered to a general rule, placing a comma at the end of the first hemistich of each verse and a period at the end of the second. In many cases, simple sentences within compound sentences were not properly separated by commas, leading to ambiguity in interpretation. This resulted in the false perception that "Navoi is a poet of the elite, and only a few specialized scholars can read and understand his works."*

Keywords: *Punctuation marks, comma, dash, text, textual studies, written speech, syntactic structure.*

Muqaddima

Sharq tillariga, jumladan o'zbek tiliga, tinish belgilari XX asr boshlarida kirib kelgan. Demak, nafaqat Navoiy asarlari qo'lyozma nusxalarida, balki butun sharq adabiyotiga tegishli bo'lgan qo'lyozma nusxalarda tinish belgilari ishlatilmagan. Shuning uchun bo'lsa kerak, hozirgi kunda ham Eron va Afg'onistonda chop etilgan mumtoz adabiyot asarlarida, asosan she'riy asarlarda, tinish belgilari qo'yilmaydi. Lekin bu ish hozirgi kunda tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'zini oqlamaydi. Chunki tinish belgilari yozma nutqda so'zlashuv nutqimizdagi lahn va ohangni o'z iziga soladi va yozuvchi ko'zlagan mazmunni to'laligicha kitobxonga yetkazib beradi. Shuningdek, tinish belgilari tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, yozma nutqni to'g'ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta'minlashda nihoyat zaruriy vositadir.

Tinish belgilari gap tarkibidagi so'zlarning semantik va grammatik munosabatlarini yuzaga chiqarish bilan bir qatorda, fikrni ta'kidlab, ajratib ko'rsatishga yordam beradi. Tinish belgilarining qo'llanish o'rinlarini bilish va ularning funksional imkoniyatlari muallifning o'z fikrini yozma ravishda to'g'ri yetkazishga yordam beradi. Mutolaa davomida bu jarayon yozuv vositasida yetkazilgan emotsional-ekspressiv holatlarni tez va tabiiy anglashga ko'maklashadi. Zamonaviy o'zbek tilida qo'llangan tinish belgilari yozuv bilan uzviy bog'langan va bir-birini taqozo etadigan semantik va strukturaviy-grammatik asoslarga qurilgan. Tinish belgilari yozma nutqning turli bo'linishlarini aks ettiradi, alohida so'zlar va so'z turkumlari o'rtasidagi mantiqiy-mazmuniy aloqa va munosabatlarni, yozma matn qismlarining turli semantik o'rinlarini ko'rsatadi.

Biz ushbu maqolamizda quyidagi so'roqlarga javob topishga intilamiz:

- Navoiy xoslar shoirimi?
- Nega hozirgacha Navoiy asarlarining mo'tabar nusxasi yaratilmagan?

- Mumtoz adabiyot matnlarini tushunishda tinish belgilarining ahamiyati qancha?

Ishimizning metodologik asosi va materialini Alisher Navoiyning “Xazoin-ul-maoniy” asari va o‘zbek tilshunosligiga oid adabiyotlar tashkil beradi. Mavzuni yoritishda, tahlil va analiz qilishda tavsifiy-tahliliy uslubdan foydalanildi.

Biz Navoiyning “Xazoin-ul-maoniy” devonlarini o‘zbek arab alifbosi asosida chopga tayyorlash jarayonida bir qator o‘rinlarda tinish belgilarining yanglish ishlatilganligi natijasida yuzaga kelgan chalkashliklarni kuzatdik. Quyida xato deb topilgan baytlarning ayrimlari ustida to‘xtalib, o‘z fikr-mulohazalarimizni sizlar bilan o‘rtoqlashishni ma’qul deb topdik.

1. G‘aroib-us-sig‘ar

Jahonki, ohim ila tiyradur emas mumkin,

Bu shom daf‘i yuzung subhi bo‘lmayin mavjud. (Navoiy, 1988, 76-b.)

Bu bayt uchta gapdan tashkil topgan: 1. Jahonki ohim ila tiyradur, 2. Emas mumkin bu shom daf‘i, 3. Yuzung subhi bo‘lmayin mavjud. Ammo bu baytdagi gaplar aniqlanmagan va vergul bilan ajratilmagan. Natijada mazkur baytning mazmuni mavhumlashgan. Bu baytning quyidagi tartibda yozilishi va o‘qilishi maqsadga muvofiqdir:

Jahonki ohim ila tiyradur, emas mumkin

Bu shom daf‘i, yuzung subhi bo‘lmayin mavjud – jahon ohim bilan tiyradir, yuzing tongi mavjud bo‘lmasdan bu shomni daf‘ qilish mumkin emas.

Shodlig‘din gulshani vaslingda yig‘lab cheksam oh,

Yopma, yuzkim, gulga bo‘lmas yel yog‘indin g‘am bahor. (Navoiy, 1988, 97-b.)

Ikkinchi misrada “yopma” kesimidan keyin vergul kerak emas. Chunki “yopma yuzkim” o‘zi bitta gap. Shuningdek, yel va yog‘in so‘zlarini yo juft so‘z shaklida qabul qilib chiziqcha bilan yozish kerak yoki ikki so‘z deb qarab vergul bilan ajratish zarur.

Zuhd ila yo‘l topmadim maqsadg‘a may tut, piri dayr

Kim, o‘zumni emdi rasvoyi jahon qildim havas. (Navoiy, 1988, 235-b.)

Birinchi misra ikki gapdan iborat. Shuning uchun “maqsadg‘a” dan keyin vergul qo‘yish kerak:

Zuhd ila yo‘l topmadim maqsadg‘a, may tut, piri dayr

Kim, o‘zumni emdi rasvoyi jahon qildim havas.

Novaking paykoni to chektilar nolon ko‘ngul,

Aylamas afg‘on ko‘ngulsizlikdin andoqkim jaras. (Navoiy, 1988, 236-b.)

Birinchi misrada birinchi gap “chektilar” bilan tugaydi. Shuning uchun undan keyin vergul qo‘yish kerak. “Nolon ko‘ngul aylamas afg‘on” – bu ikkinchi gap. Demak, “ko‘ngul” so‘zidan keyin vergul qo‘yish kerak emas va “afg‘on” so‘zidan keyin vergul qo‘yilishi zarur. Birinchi misrada “nolon ko‘ngul” gapning egasi bo‘lib qolgan. Holbuki, birinchi gapning egasi gapda ishtirok etmagan (ular) so‘zidir. “nolon ko‘ngul” esa ikkinchi gapning egasidir. Baytning mazmuni: novakingning (tiyr, nayza, o‘q) paykonlarini (o‘qning temir uchi) mening ko‘nglimdan chiqarib olganlaridan keyin, nolon ko‘nglim endi afg‘on qilmay qo‘ydi. Chunonchi jaras (tuyalarning bo‘yniga taqiladigan qo‘ng‘iroq) ichidan metall jomga tegib ovoz chiqaradigan uzun temir tayoqchani chiqarib olsa, ovoz chiqarmaydigan bo‘lib qolgandek. Navoiy jaras ichidagi temir tayoqchani uning (jarasning) ko‘ngli deb tasvirlayapti. Bu baytni quyidagicha yozish va o‘qish kerak:

Novaking paykonini to chektilar, nolon ko‘ngul

Aylamas afg'on, ko'ngulsizlikdin andoqkim jaras.

To taning avji hayot ustidadur sen xok bo'l,

Istasangkim avj tutqaysen taning bo'lg'anda xok. (Navoiy, 1988, 186-b.)

Bu baytda tinish belgilari o'rinsiz qo'llangan. To taning hayot ustidadur (birinchi gap), sen xok bo'l (ikkinchi gap), istasangkim avj tutqaysen (uchinchi gap), taning bo'lg'anda xok (oxirgi – to'rtinchi gap). Demak, bu bayt quyidagicha yozilishi kerak:

To taning avji hayot ustidadur, sen xok bo'l,

Istasangkim avj tutqaysen, taning bo'lg'anda xok.

Baytning mazmuni: taning tuproqqa qorishganda – (o'lgandan keyin) noming abadiy qolishini xohlasang, hayotda (tirikligingda) – shonu shuhratda yashab yurganingda tuproq bo'l - kamtarlik pesha qil.

2. Navodir-ush-shabob

Ne lo'livashdur ul qotilki, qon to'kmakkadur yaksar

Qiyo boqmoqlari poki itik, mujgonlari nishtar. (Navoiy, 1989, 102-b)

Bu baytning ikkinchi misrasi ikki gapdan iborat: 1. Qiyo boqmoqlari – poki (ustara), 2. Itik mujgonlari – Nishtar. Demak vergul “poki” so'zidan keyin qo'yilishi kerak. “Itik” so'zi “poki” so'ziga hech jihatdan bog'lanmaydi va hech qanday ma'no ifoda qilmaydi. Aslida, mujgon so'ziga sifatlovchi bo'lib kelgan. Bu baytning quyidagicha yozilishi maqsadga muvofiqdir:

Ne lo'livashdur ul qotilki, qon to'kmakkadur yaksar

Qiyo boqmoqlari – poki, itik mujgonlari – nishtar.

Ey Navoiy, nazming asru sodda erdi qo'ydi yuz,

Shoh islohidin oncha zeb ila ziynat anga. (Navoiy, 1989, 5-b.)

Birinchi misrada vergul xato ishlatilgan. Menimcha “sodda erdi” birinchi gapning kesimidir. Demak, vergul bilan ajratilishi kerak. “Qo'ydi yuz” ikkinchi gapning kesimidir. Ikkinchi gapning egasi esa “zeb ela ziynat” so'zlaridir. Shunday ekan, bu gapda kesimdan keyin vergul qo'yish xatodir. Bu bayt quyidagi ko'rinishda bo'lishi kerak:

Ey Navoiy, nazming asru sodda erdi, qo'ydi yuz

Shoh islohidin oncha zeb ila ziynat anga.

Chun qo'yub ketgung jahon mulkin mussaxar bo'ldi, tut,

Chun yotib o'lgung falak taxti muyassar bo'ldi, tut. (Navoiy, 1989, 36-b.)

Bu g'azalda radif bo'lib kelgan “bo'ldi tut” birikmasi o'zidan oldingi so'z bilan birgalikda murakkab fe'l hisoblanadi va “... bo'di deb hisobla” degan ma'noni ifodalaydi. Shuning uchun ham bu ikki so'z orasiga vergul qo'yish xatodir.

Ko'zung shamoilini nargis ar ko'ra olmas,

Sanga ne fikr ko'zi chiqsun ulki, bo'ldi hasud. (Navoiy, 1989, 65-b.)

Ikkinchi misra uch gapdan iborat. Ularni vergul bilan ajratish sintaktik jihatdan maqsadga muvofiqdir: 1. Sanga ne fikr, 2. Ko'zi chiqsun, 3. Ulki bo'ldi hasud. Baytning sharhi quyidagicha: ko'zingning tuzilishini (chiroyni) agar nargis (guli) ko'ra olmasa, sen o'ylab o'tirma, fikrida bo'lma. kimki uning chiroyliligini ko'ra olmasa, hasodat qilsa, ko'zi chiqsin. Demak, bu bayt quyidagi ko'rinishda bo'lishi kerak:

Ko'zung shamoilini nargis ar ko'ra olmas,

Sanga ne fikr, ko'zi chiqsun, ulki bo'ldi hasud.

Yor isidur kom keltursun sabo yoxud shamol,

Do'st, taqririg'a roviy xoh Buzar, xoh Anas. (Navoiy, 1989, 117-b.)

“Yor isidur kom” – birinchi misraning birinchi gapidir. Uni ikkinchi gapdan vergul bilan ajratish kerak. Ikkinchi misrada “do’st” so’zidan keyin vergul qo’yish kerak emas. Chunki do’st va taqrir so’zlari orasidagi sintaktik munosabat qaratuvchi-qaralmishdir.

Korvoni dard ila qat’ et muhabbat dashtini

Kim nidoje mujdai vasl aylar anda har jaras. (Navoiy, 1989, 117-b.)

Bu baytda hech bir o’rinda vergul qo’yilmagan, demak, qanday o’qilishi kitobxon zimmasiga havola bo’lgan. Bundan tashqari, “nido” so’ziga yoyi vahdat qo’yilgan (bir nido). Bu suratda “nido” so’zi gapda ega vazifasida kelishi kerak bo’ladi. Holbuki, bu gapda “har jaras” so’zi ega bo’lib kelgan. Bu gapning kesimi “nidoi mujdai vasl aylar” birikmasidir. “Anda” so’zi esa hol vazifasida kelgan. Shuningdek, “kim” so’zi bog’lovchidir. Shunday ekan, undan keyin vergul qo’yilishi kerak. Baytning mazmuni: muhabbat dashtini dard karvoni bilan bosib o’tki, unda (muhabbat dashtida) har bir jaras (qo’ng’iroq) vasl xushxabarini beradi. Bu bayt quyidagicha yozilishi kerak:

Korvoni dard ila qat’ et muhabbat dashtini

Kim, nidoi mujdai vasl aylar anda har jaras.

Tojvarlar oq uyida sokin o’lsa, ahli ishq

O’yladurkim bulbulu huddudg’a bo’lg’ay bir qafas. (Navoiy, 1989, 117-b.)

Bu baytda ham tinish belgilari yanglish qo’yilgan. Birinchi misrada “o’lsa” fe’lidan keyin vergul qo’yish xatodir. Vergul aslida “ahli ishq” birikmasidan keyin qo’yilishi kerak. Chunki birinchi misra sodda gap bo’lib, uning egasi “ahli ishq” va “sokin o’lsa” birikmasi kesimdir. Biz bu baytni mukammal asarlar to’plamidagi tartib asosida sharhlasak, quyidagi ma’no chiqadi: (u) podshohlar uyida yashasa, ishq ahli shundaydirki, bulbulu hudhud bir qafasda yashasa. Lekin kerakli tinish belgilarini qo’ygandan keyin quyidagi shakl va ma’no hosil bo’ladi:

Tojvarlar uyida sokin o’lsa ahli ishq,

O’yladurkim, bulbulu hudhudg’a bo’lg’ay bir qafas – podshohlar oq uyida ishq ahli sokin bo’lsa, bulbul (ishq ahli) bilan hudhud (podshoh) ayni qafasda bo’lgandek bo’ladi.

Surma ul shabxez ayog’i gardin, et kim kechalar,

Itcha yo’q ko’yida gar xud shahna bo’lsun, gar asas. (Navoiy, 1989, 117-b.)

Birinchi misrada “gardin” va “kechalar” so’zlaridan keyin qo’yilgan vergullar mutlaq yanglishdir. Mantiqan vergulni “kim” bog’lovchisidan keyin qo’yish kerak. Chunki birinchi misradagi gap shu yerda tugaydi va “kechalar” so’zini ikkinchi misraga qo’shib o’qish kerak va bu so’z ikkinchi gap kesimi uchun hol vazifasida kelgan. Bu baytda tinish belgilari quyidagi tartibda bo’lishi kerak:

Surma ul shabxez ayog’i gardin etkim, kechalar

Itcha yo’q ko’yida gar xud shahna bo’lsun, gar asas.

Ey ko’ngul, g’amgin esang kup quysa soqiy og’zingga

Zarfni, sipqormag’uncha qilmag’il zinhor bas. (Navoiy, 1989, 126-b.)

Bu baytni mukammal asarlar to’plamidagi tartibda o’qisa, ikkinchi misradagi “zarfni” so’zi “quysa” fe’liga bog’lanadi, holbuki, bu so’z “sipqormag’uncha” fe’liga bog’lanib kelgan. Bu bayt aslida quyidagi tartibda yozilishi va o’qilishi kerak:

Ey ko’ngul, g’amgin esang, kup quysa soqiy og’zinga,

Zarfni sipqormag’uncha, qilmag’il zinhor bas.

Husn mulkida shah ul yuz chatr mushkin bo’ldi qosh,

Ne ajab, bo’lsa zumurraddin anga avrang xat. (Navoiy, 1989, 148-b.)

Birinchi misra ikki gapdan iborat: 1. Husn mulkida shah – ul yuz, 2. Chatri mushkin bo'ldi qosh. Bu gaplarni vergul bilan ajratmasdan baytdan ma'no chiqarish qiyin. Baytning sharhi quyidagicha: ul yuz (yorning yuzi) husn mulkida podshohdir, mushk hidli qosh podshohning boshida soyabondir. Yorning xati (yuzda endigina chiqayotgan soqol-mo'ylov) podshohning (yuzning) zumurraddin yasalgan taxti bo'lsa ajab emas.

O'tgan o'tti bori, emdi ayla bu pandim qabul

Kim, yana qilma havoi jinsi odam, ey ko'ngul. (Navoiy, 1989, 206-b.)

Birinchi misrada "bori" so'zi o'zbekcha "bari" emas, forsha "bore" (aqllan, hech bo'lmasa, hech bo'lmaganda) dir. Shuning uchun bu so'z birinchi gapga emas, balki ikkinchi gapga tegishlidir. Shunday ekan, vergul "o'tkan o'tti" birikmasidan keyin kelishi kerak.

Alloh-Alloh, ne balodurkim, labu mujgon bila,

Yolg'uz el tirguzguchi yo'qkim erur, jallodi ham. (Navoiy, 1989, 215-b.)

"Mujgon bila" so'zidan keyin qo'yilgan vergul yanglishdir. Chunki bu so'z "tirguzguchi yo'q" kesimi bilan bog'lanib, to'ldiruvchi vazifasida kelgan. Shuning uchun ham vergul bu so'zdan keyin emas, balki undan oldin qo'yilishi kerak va bu bayt quyidagi tartibda yozilishi va o'qilishi kerak:

Alloh-Alloh, ne balodurkim, labu mujgon bila

Yolg'uz el tirguzguchi yo'qkim, erur jallodi ham.

Mast agar sajdang qilurmen yopma yuz, ey mug'bacha,

Ne uchunkim dayr piri mazhabidur mashrabim. (Navoiy, 1989, 218-b.)

Birinchi misrada "qilurmen" dan keyin vergul qo'yish kerak. Chunki birinchi gap shu yerda tugaydi. "Yopma yuz" ikkinchi gap hisoblanadi, "ey mug'bacha" – undalma, "ne uchunkim" bog'lovchi vositadir. "Dayr piri mazhabi" – uchinchi gapning egasi. "Mashrabimdur" uchinchi gapning kesimidir. Bu gapning tinish belgilari quyidagicha bo'lishi kerak:

Mast agar sajdang qilurmen, yopma yuz, ey mug'bacha,

Ne uchunkim dayr piri mazhabidur mashrabim.

Ko'z yo'lida telmurub ko'nglum sog'inur, kim meni,

Istamoqqa keltusi har kim ki chiqsa o'trudin. (Navoiy, 1989, 243-b.)

Birinchi misrada ikkita gap bor: 1. Ko'z yo'lida telmurub, 2. Ko'nglum sog'inurkim. Baytning qolgani uchinchi gapdir. Shunday ekan, gaplar vergul bilan ajratilsa, bayt mazmuni aniqroq o'z ifodasini topadi. Demak, bu baytda tinish belgilarini quyidagi tartibda qo'yish kerak:

Ko'z yo'lida telmurub, ko'nglum sog'inurkim, meni

Istamoqqa keltusi har kimki chiqsa o'trudin.

Ey Navoiy, umr agar budur ajal rahm aylabon,

Kelsa jonim olg'ali jon birla minnatdormen. (Navoiy, 1989, 248-b.)

Birinchi misrada "umr agar budur" bitta gap hisoblanadi, shuning uchun "dur" dan keyin vergul qo'yish kerak. "Rahm aylabon" birikmasidan keyin qo'yilgan vergul kerak emas. Chunki "ajal" so'zi ikkinchi gapning egasidir. "Rahm aylabon" birikmasi "kelsa" kesimiga hol bo'lib kelgan. "Jonim olg'ali" maqsad holidir. "Jon birla minnatdormen" uchinchi va oxirgi gapdir. Shunday ekan, "olg'ali" so'zidan keyin ham vergul qo'yish kerak. Demak, bu bayt quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Ey Navoiy, umr agar budur, ajal rahm aylabon

Kelsa jonim olg'ali, jon birla minnatdormen.

Do'stlar vasl o'tin istarga Navoiy bormish,
Fosh qilmang bu hadisini aning yong'uncha. (Navoiy, 1989, 293-b.)
Birinchi misrada "do'stlar" so'zi undalma bo'lib kelgan. Shuning uchun undan keyin vergul qo'yish kerak.

Dedi, la'limdin qilay joning iloji, qilmadi

G'amzasin jonimg'a, oxir novakafkan qildilo. (Navoiy, 1989, 302-b.)

Yuqoridagi baytda vergullar yanglish qo'llangan: "qilmadi" fe'lidan keyin vergul qo'yish kerak, agar vergul qo'yilmasa, ikkinchi misradagi bo'laklarning boshqaruvchisiga o'xshab qoladi. Holbuki, "qilmadi" fe'li o'zi alohida bir gap bo'lib kelgan. Shuningdek, "jonimg'a" so'zidan keyin qo'yilgan vergul ortiqchadir. Chunki, bu va undan oldin kelgan "g'amzasin" so'zlari "novakafkan qildilo" kesimiga bog'lanib kelgan. Bu bayt quyidagicha yozilishi va o'qilishi kerak:

Dedi, la'limdin qilay joning iloji, qilmadi,

G'amzasin jonimg'a oxir novakafkan qildilo.

Bu tiyra dahrni gar oshiq etmasang bo'lmas,

Arusi mehri falak mazharida jilvanimoy. (Navoiy, 1989, 303-b.)

"Yetmasang" kesimidan keyin vergul qo'yish kerak. "Bo'lmas" bo'lishsiz fe'lidan keyin vergul qo'yish zarur emas. Chunki u "jilvanimoy" so'zi bilan birgalikda ikkinchi misradagi gapning kesimini tashkil etadi. Ikkinchi misradagi "arusi mehri falak mazharida ..." emas, balki "arusi mehr falak mazharida ...". Ko'rib turganingizdek bu baytdan, tinish belgilarining xato ishlatilganligi sababli, Navoiy ko'zlagan mazmun chiqmayapti. Bu baytda tinish belgilari quyidagi tartibda bo'lishi kerak:

Bu tiyra dahrni gar oshiq etmasang, bo'lmas

Arusi dahr falak mazharida jilvanimoy – bu qorong'u dunyoni agar oshiq qilmasang, arusi dahr (quyosh kelini) falak mazharida (jilvagohida) jilvagar bo'lmaydi (chiqmaydi).

Voiz aylar vasfi jannat ichra kavsar bodasin,

Bo'l Navoiy mast, xohi mundog'i, xoh andog'i. (Navoiy, 1989, 307-b.)

Birinchi misrada vasf so'zidagi "i" harfi egalik qo'shimchasimi yoki forsiy izofami? Mening nazarimda ikkovi ham emas. To'g'risi: voiz aylar vasf jannat ichra kavsar bodasin.

3. Badoye'-ul-vasat

Ulkim zamona ahlidin istar vafovu mehr

Kim, naqshi mehr ko'rdi munga yo vafo anga. (Navoiy, 1990, 6-b.)

Bu baytning ikkinchi misrasidagi "kim" bog'lovchi emas, balki so'roq olmoshidir. Shunday ekan, vergul "mehr" so'zidan keyin qo'yilishi kerak. Agar bu misrada "kim" so'zini bog'lovchi deb, undan keyin vergul qo'yib o'qilsa, hech qanday ma'no chiqmaydi.

Yorkim, mundoq nihondur ko'zdinu men telbamen

Kim, degaykim, fitna qilg'an nasli odamdur manga. (Navoiy, 1990, 7-b.)

Ikkinchi misradagi "kim" so'zi bog'lovchi emas, balki so'roq olmoshidir. Shuning uchun vergul "telbamen" so'zidan keyin qo'yilishi kerak. Aks holda bu baytdan ma'no chiqarib bo'lmaydi.

Ko'zung qonimni ichmakka ne haddim

Erur, oni iting ichsa, kifoyat. (Navoiy, 1990, 41-b.)

"Haddim"dan keyin vergul qo'yish kerak. Chunki birinchi misra butun holda bir gap hisoblanadi. "Erur" to'liqsiz fe'li esa, "haddim" so'zi bilan emas, "kifoyat" so'zi bilan

murakkab fe'l hosil qilgan. Baytning mazmuni esa quyidagicha: ko'zing qonimni ichishga ne haddim (bor)? Uni (qonimni) iting ichsa kifoyat erur (dir). Ikkinchi misradagi vergullarni olib tashlasa, ma'no yanada oydinlashadi. Demak, "erur" va "ichsa" so'zlaridan keyin vergul qo'yish unchalik muhim emas.

Ne masti arbada gar senki, chiqsa bazmingdin,

Buzar zamonani badmastlig' bila har mast. (Navoiy, 1990, 42-b.)

Bu misrada "gar" unsuri yuklama emas, balki so'z yasovchi qo'shimchadir. Arbada so'ziga -gar qo'shimchasi qo'shilib "arbadagar" ("dodu faryod qiluvchi") so'zini yasayapti. Shuningdek, "sen" unsuri ham ikkinchi shaxs kishilik olmoshi emas, balki ikkinchi guruh tuslovchining ikkinchi shaxs birlik qo'shimchasidir. Shuning uchun ularni qo'shib yozish kerak – "arabadagarsen". Bu baytning to'g'ri yozilish shakli quyidagicha:

Ne masti arbadagarsenki, chiqsa bazmingdin

Buzar zamonani badmastlig' bila har mast.

Baytning sharhi: sen qanday arbadagar (dodu faryod qiluvchi) mastsanki, bazmingdan har mast chiqsa, badmastlik bilan zamonani buzadi?!

Xonu moning'a vido' ettim g'amidin, vah, anga

Kim, dey olg'aykim, qil ul be xonu mon birlan vido'. (Navoiy, 1990, 55-b.)

Ikkinchi misradagi birinchi "kim" bog'lovchi emas, balki ikkinchi gapning egasi bo'lib kelgan kishilik olmoshidir. Shunday ekan, undan keyin qo'yilgan vergul xatodir.

Ko'nglum durur fatila emas mash'al ichrakim,

Ul sho'x o't solib, quyar oning o'tig'a yog'. (Navoiy, 1990, 161-b.)

Birinchi misrada "fatila" so'zidan keyin vergul qo'yilishi kerak. Chunki "durur" va "emas" so'zlari birinchi misradagi qo'shma gapni tashkil bergan soda gaplarning kesimi bo'lib kelgan.

Charx dard ahlig'a har dam yog'durur gardi firoq,

O't ravonroqkim, xatarliqdur, base, bu eski toq. (Navoiy, 1990, 166-b.)

Bu baytning ikkinchi misrasida "base" so'zini vergul bilan ayirish kerakmikan? Bu so'z kirish so'z vazifasida kelgan yuklama deb o'ylangan shekilli. Holbuki, bu so'z ko'p ma'nosini bildirib hol vazifasida kelgan.

Eyki, azm etting haram matlub hamrahdur sanga,

Sen yiroqsen andin, ammo ul sanga behad yovuq. (Navoiy, 1990, 168-b.)

Bu baytning birinchi misrasi qo'shma gapdir. Shuning uchun "haram" so'zidan keyin vergul qo'yib o'qilishi kerak.

Biz niyoz ahliyu sen noz ahlisen, rahm et gahe,

Qo'y niyoz etmakka bizni goh, o'zung ham noz qil (Navoiy, 1990, 205-b.)

Ikkinchi misrada vergulni "goh" so'zidan keyin emas, oldin qo'yish kerak. Chunki "goh" so'zi birinchi gapning emas, ikkinchi gapning holidir.

Sadqa aylarga anga loyiq, manga yo'q tuhfae,

Xasta jonim naqdi bordur elt, ey payki haram. (Navoiy, 1990, 209-b.)

Birinchi misradagi loyiq so'zidan keyin qo'yilgan vergul xatodir. Chunki bu misra bitta gapdan tashkil topgan. Gapning kesimi "yo'q" so'zidir. Egasi – "tuhfae". "Sadqa aylarga" birikmasi to'ldiruvchidir. Anga loyiq – eganing (tuhfa so'zining) sifatlovchisidir. Manga (manda) to'ldiruvchidir. Ikkinchi misra esa, ikki gapdan tashkil topgan. Birinchi gap: jonim naqdi bordur. Ikkinchi gap: elt, ey payki haram. Shunday ekan, bu misrada "bordur" so'zidan keyin vergul qoyish kerak:

Sadqa aylarga anga loyiq manga yo'q tuhfae,

Xasta jonim naqdi bordur, elt, ey payki haram.

Manga tiyg' ursa rizo berdimu ag'yorg'a, yo'q

Men turub o'lturur ani, ne zarofatdur bu. (Navoiy, 1990, 271-b.)

Bu baytda "manga tiyg' ursa" gapi "rizo berdim" gapidan vergul bilan ajratilishi kerak va "ag'yorg'a" so'zidan keyin qo'yilgan vergul olinib, "yo'q" so'zidan keyin qo'yilishi sintaktik talabga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, ikkinchi misradagi "men turub" gapi "o'lturur oni" gapidan vergul bilan ajratilishi lozim. Demak, bu bayt quyidagicha yozilishi va o'qilishi kerak:

Manga tiyg' ursa, rizo berdimu ag'yorg'a yo'q,

Men turub, o'lturur oni, ne zarofatdur bu.

Isitqan, nozanin jismingki, terdin tushti tob ichra,

Erur bir otashin gul bargikim, yotqay gulob ichra. (Navoiy, 1990, 284-b.)

Birinchi misrada "isitqan" va "nozanin" sifatlari "jism" so'zini aniqlab kelayotgan bo'lsa-da, uyushgan sifatlovchilar hisoblanmaydilar. Chunki ular "jism" so'zini turli jihatdan sifatlayapti. Shuning uchun ham ularni vergul bilan ajratish maqsadga muvofiq emas. Shuningdek, "jismingki" so'zidan keyin qo'yilgan vergul ham ortiqchadir. Chunki bu yerda "ki" bog'lovchi emas, yuklamadir. "Jisming" so'zi birinchi misradagi gapning egasi bo'lib kelgan.

Ko'nglum istarni tilarmen boring, ey oyu quyosh,

Sizni ko'ngli istamas, ulkim tilar dilxohni. (Badoyil-vasat, 340-b.)

Birinchi misrada "tilarmen" so'zidan keyin vergul qo'yish kerak. Chunki birinchi gap shu yerda tugaydi va "boring" so'zi birinchi misradagi ikkinchi gapning kesimidir. Boring ikkinchi gapning kesimidir – (siz) boring. "Ey oyu quyosh" – mazkur gapda undalma bo'lib kelgan.

Buzdung bu ko'ngulni lojaram mulk –

Vayron bo'lur, o'lsa shoh zolim. (Navoiy, 1990, 352-b.)

Bu bayt uch gapdan tashkil topgan: 1. Buzdung bu ko'ngulni, 2. Lojaram (shubhasiz) mulk vayron bo'lur, 3. O'lsa shoh zolim. Shunday ekan, birinchi gapning oxiriga vergul qo'yilishi kerak va birinchi misra oxiridagi tire ham ortiqchadir. Chunki sintaktik jihatdan kesimi to'liq shakllangan gapda ega bilan kesim orasiga hech qanday tinish belgisi qo'yish talab qilinmaydi.

4. Favoyid-ul-kibar

Navoiy o'ldi, base, xoru past xas yanglig',

Sening yo'lungda esa, bas, anga bu izzu alo. (Navoiy, 1991, 7-b)

Bu baytda "base" va "bas" so'zlaridan oldin va keyin qo'yilgan vergullar ortiqchadir. Chopga tayyorlovchi shaxs bu so'zlarni kirish so'z deb o'ylab, vergul bilan ajratgan bo'lishi mumkin. Lekin aslida, "base" so'zi "ko'p" ma'nosida birinchi gapda hol vazifasida kelgan. Shunday ekan, bu so'zni vergul bilan ajratish xatodir. Shuningdek, ikkinchi gapdagi "bas" so'zi modal so'z bo'lib, ikkinchi gapning kesimi bo'lib kelgan. Baytning ma'nosi quyidagicha: Navoiy xas yanglig' base (ko'p) xor bo'ldi, sening yo'lingda esa unga bu izzu alo basdir.

Bir ahli ishqni yori halok aylab Navoiyni,

Bu yanglig' yorsiz jon minnatin chekmak halok aylar. (Navoiy, 1991, 78-b.)

Birinchi misrada ikkita vositasiz to'ldiruvchi kelgan. "halok aylab" kesimi qaysi biriga tegishli? Halok aylab Navoiynimi yoki ahli ishqnimi? Menimcha "bir ahli ishqni yori halok aylab" - bir gap. "Navoiyni bu yanglig' yorsiz jon minnatin chekmak halok aylar" - ikkinchi gap. Baytning sharhi: mumtoz adabiyotda qoida bo'yicha "ishq ahlini

yori halok aylaydi, Navoiyni esa (bu qoidaga xilof) yorsiz jon minnatini chekish halok aylaydi. Shunday ekan, baytdagi vergul tartibi quyidagi shaklda bo'lishi kerak:

Bir ahli ishqni yori halok aylab, Navoiyni

Bu yanglig' yorsiz jon minnatini chekmak halok aylar. (Bu gap qo'shma gap bo'lib, birinchi gapning egasi - "yori", kesimi - "halok aylab". "bir ahli ishqni" vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelgan. Ikkinchi gapning egasi - "bu yanglig' yorsiz jon minnatini chekmak". "Halok aylar" esa - kesim. "Navoiyni" so'zi vositasiz to'ldiruvchidir.)

Uyqudin bosh qo'yg'ay ul ko'z sajda, xud qilg'usi yo'q

Kofarekim, mastlig'din azmi mehrob aylamish. (Navoiy, 1991, 136-b.)

Birinchi misrada vergul "sajda" so'zidan keyin emas, balki "ko'z" so'zidan keyin qo'yilishi kerak. Chunki "uyqudin bosh qo'yg'ay ul ko'z" bir gap bo'lib, "sajda" so'zi "xud qilg'usi yo'q" birikmasi tarkibida birgalikda ikkinchi gapning kesimi bo'lib kelgan. "Kofare" so'zi ikkinchi gapning egasidir. "Mastlig'din azmi mehrob aylamish" birikmasi eganing aniqllovchi-sifatlovchisidir. Baytning mazmuni: ul ko'z uyqudan bosh qo'yadi (uxlaydi). Nimaga o'xshab? Mastlikdan mehrob azmini qilgan kofarga o'xshab. Ammo bu kofarning mehrobgga azm qilgani sajda uchun emas, balki mastlikdandir. Ko'zning ham uyqu ta'siridan bosh qo'yishi (yumishi) mehrobgga (qoshga) sajda qilish uchun emas, balki mastlikdandir.

Jon berib zulmin chu topmon jon toparg'a vaslini,

Bas tamannoyi muholedur tamanno aylamak. (Navoiy, 1991, 156-b.)

Bu baytda ikkita gap bor. Birinchi gap: jon berib zulmin topmon. Ikkinchi gap: jon toparg'a vaslini, bas tamannoyi muholedur tamanno aylamak. Birinchi gapning kesimi - topmon. Egasi - yozuvda ifodalanmagan "men". Zulmin - to'ldiruvchi. Jon berib - hol. Ikkinchi gapning kesimi - tamannoyi muholedur. Gapning egasi - jon toparg'a vaslini tamanno aylamak. Bas - hol. Bu baytning sharhi quyidagicha: jon berib (yorning) zulmini topa olmaganidan keyin, jon topish uchun vaslini tamanno qilish muhol (nomumkin) bir tamannodir. Bu baytdan faqat birinchi misraning oxiriga bir vergul qo'yinsh bilan yuqoridagi sharhni chiqarish nomumkindir. Demak, bu baytda tinish belgilarini quyidagicha qo'yish maqsadga muvofiqdir:

Jon berib zulmin chu topmon, jon toparg'a vaslini,

Bas tamannoyi muholedur, tamanno aylamak.

Ikkinchi gapning kesimi (bas tamannoyi muholedur) eganing (jon toparg'a vaslini tammonno aylamak) o'rtasida kelgani uchun vergul bilan ajratishni ma'qul ko'rdik.

Ishq ahli, sotqun, olsa izing to'tiyosidin,

Qilg'il tarozu ikki ko'zumning qarosidin. (Navoiy, 1991, 254-b.)

Birinchi misradagi "sotqun" so'zini vergul ichiga olish xatodir. Bu misrada kelgan vergullar qanday vazifa bajarmoqda? Agar "sotqun" so'zini undalma deb vergul ichiga olgan bo'lsa, undan qanday ma'no chiqarish mumkin?! Aslida, bu baytda "sotqun olsa" birikmasi murakkab fe'l bo'lib, ergash gapning kesimi bo'lib kelayapti. Baytning sharhi: ishq ahli izing to'tiyosidan sotib oladigan bo'lsa, ikki ko'zim qorasidan tarozi qil. Mazkur bayt quyidagi shaklda yozilishi kerak:

Ishq ahli sotqun olsa izing to'tiyosidin,

Qilg'il tarozu ikki ko'zumning qarosidin.

Yuzung o'tin ohim yorutur erur, shukr

Ki, ul dam bila tiyra bo'lmas bu ko'zgu. (Navoiy, 1991, 264-b.)

Birinchi misrada “erur” to’liqsiz fe’lidan keyin qo’yilgan vergul xatodir. Aslida, vergul birinchi misradagi gapning kesimi – “yorutur” fe’lidan keyin qo’yilishi kerak:

Yuzung o’tin ohim yorutur, erur shukr

Ki, ul dam bila tiyra bo’lmas bu ko’zgu.

O’rtabon har kimni, o’t jonimg’a solma rashkdin,

Xalqni paydo, meni, majnunni, pinhon o’rtama. (Navoiy, 1991, 280-b.)

Bu baytning ikkinchi misrasidagi vergullar yanglish qo’yilgan va baytning ma’nosini murakkablashtirgan. To’g’risi: Xalqni paydo, men-i majnunni pinhon o’rtama. Bu kitobni nashrga tayyorlovchi kishi ikkinchi misradagi “meni” va “majnunni” so’zlarini ajratilgan to’ldiruvchi deb o’ylagan. Buning sababi, Navoiy asarlari qo’lyozmalarida muzof bo’lib kelgan “men” olmoshi aksaran tushum kelishigi qo’shimchasini olgan shaklda keladi. Mazkur xato shundan kelib chiqqan bo’lishi mumkin. Aslida, bu baytda “men” va “majnun” so’zlarining sintaktik munosabati muzof + muzof ilayh bo’lib, fors tilidagi “man-i majnun” (من مجنون) tarkibi ta’sirida shakllangan. Bundan tashqari, “majnunni” va “pinhon” so’zlari orasidagi vergul ham yanglish qo’llangan. Ikkinchi misradagi “paydo” va “pinhon” so’zlari “o’rtama” kesimiga nisbatan hol vazifasida kelgan. “xalqni” va “men-i majnunni” so’zlari uyushib kelgan vositasiz to’ldiruvchidir. Shuningdek, birinchi misrada “o’rtabon har kimni” so’z birikmasidan keyin qo’yilgan vergul ham xatodir. Chunki bu birikma mazkur gapda hol vazifasida kelgan. Hol bilan kesim orasiga vergul qo’yish sintaktik jihatdan o’rinli emas.

Keltirilgan misollar tahlili shuni ko’rsatadiki, Navoiy asarlarini chopga tayyorlashda tinish belgilari matnning mazmunidan kelib chiqib emas, aksar hollarda umumiy bir qoida asosida misra oxiriga vergul, bayt oxiriga nuqta qo’yilgan va bu tavakkal hamisha ham o’zini oqlamaydi. Bundan tashqari, Navoiyning xoslar shoiri bo’lib qolishiga, shoir asarlarining barcha xatolardan xoli bo’lgan mo’tabar nusxasi yaratilmaganligi yonida, hozirgi o’zbek adabiy tilining shakllanishida XX asr boshlarida sho’rolar davlatining, o’ziga qaram millatlarni manqurtga aylantirish maqsadida qilingan qasdiy va hisoblangan harakatlari ham sabab bo’lgan. Chunki bu davrdan boshlab mumtoz badiiy asarlarimiz so’z boyligi hozirgi o’zbek adabiy tili leksik qatlamiga kiritish man etildi va o’zbek tili eshigi ruscha so’zlar yuziga lang ochib qo’yildi. Natijada minglab ruscha so’zlar ruscha talaffuz bilan o’zbek tiliga kirib keldi. Go’yo o’zbek tilini ruscha-internasional so’zlar hisobiga boyitdilar. Natijada o’zbek tili o’zining milliy qiyofasini yo’qotib qo’ydi. “o’zbek tilining izohli lug’ati”ni tuzishda oktyabr inqilobidan keyingi davrda yaratilgan adabiyotlarga suyanildi. Undan oldingi davrda yaratilgan noyob asarlar reaksion asarlar deb qoralandi va Navoiy asarlarida faol ishlatilgan yuzlab sof turkiy so’zlar, shuningdek, tilimizning boyligi hisoblanmish arab tilidan asrlar davomida o’zlashgan arabcha so’zlar o’zbek tilidan surib chiqarildi. Bu qasdiy harakatlar natijasida Navoiy xoslar shoiriga aylanib qoldi. Hozirgi kunda Navoiy asarlari tili ko’pchilik o’zbeklar uchun begonalashib qolgan. Modomiki, Navoiyni tilimiz va adabiyotimiz, madaniyatimiz va ma’naviyatimiz, qolaversa, o’zligimizning asosi deb bilar ekanmiz, uning asarlarini xalqimizga nasriy bayon vositasida emas, balki to’g’ridan-to’g’ri – vositasiz yetkazishga harakat qilishimiz zarur. Bu ish Navoiy tili leksikasini to’laligicha o’zbek adabiy tiliga olib kirish bilan amalga oshadi.

Shuni unutmaslik kerakki, o’zliksiz hech qanday ma’naviyat va o’tmishsiz hech qanday kelajak bo’lishi mumkin emas. Har qanday kelajak faqat o’tmish ustiga quriladi.

Shunday ekan, biz ham tilimizning milliy qiyofasini tiklash va xalqimizni o'tmishiga ulash uchun Navoiy asarlarida qo'llangan har bir so'zni tilimiz boyligi deb bilib, o'zbek tilining izohli lug'atlariga kiritishimiz zarur. Shundagina Navoiyni xoslar shoiri ekanlikdan chiqarib, barcha o'zbek xalqiga qaytargan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy, Alisher. (1988). MAT. 3-jild. Toshkent: "Fan".
2. Navoiy, Alisher. (1989). MAT. 4-jild. Toshkent: "Fan".
3. Navoiy, Alisher. (1990). MAT. 5-jild. Toshkent: "Fan".
4. Navoiy, Alisher. (1991). MAT. 6-jild. Toshkent: "Fan".
5. Nazarova, S. (2014). Hozirgi o'zbek tili (sintaksis). Toshkent: "Buxoro".
6. Ne'matov, H. (2011). Zamonaviy o'zbek tili (sintaksis). "Mumtoz so'z".

NAVAI'S POETRY AS REFLECTED IN MINIATURE PAINTINGS

(A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)

Sevda Beheshti

Graduate of Islamic Art MA from Tehran University of Art

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/TJLK1194

Abstract. *This article examines the influence of Sultan Husayn Bayqara's full support and Amir Ali-Shir Nava'i's patronage on the development of the royal library, where numerous prominent artists were gathered to create valuable works. Nava'i's literary works, esteemed for their high literary value, captivated artists and have been reproduced in various regions and periods. The study explores which stories and themes artists chose to illustrate and investigates the potential connections between the illustrations and the corresponding verses in Nava'i's poetry. The findings reveal that, in most cases, the illustrations were directly derived from adjacent verses. However, two manuscripts—Fawa'id al-Kibar and Hayret al-Abrar—present exceptions, as the images were not contemporaneous with the works and were added later, without a direct correlation to the verses adjacent to the illustrations. The study focuses on seven illustrated manuscripts preserved in Iran, providing insight into the relationship between visual art and literary expression. Furthermore, the article highlights the significant role Amir Ali-Shir Nava'i played in promoting Turkish literary works, as his own writings contributed to a notable increase in Turkish literary production.*

Keyword: *Amir Ali Shir Navai, book illustration, art, Timurid, Sultan Husayn Bayqara, Chagatai Turkish.*

Introduction

The art of bookbinding and manuscript copying has always been a focus of attention among courts, artists, and scholars of science and literature throughout various periods. In the Timurid era, recognized as one of the golden ages of artistic creation, we witness remarkable artistry in various fields, including those related to books. The works produced in different regions under Timurid rule primarily include Turkish, Persian, and Arabic works.

One of the prominent artistic centers was the court of Sultan Husayn Bayqara, with Amir Ali-Shir Nava'i being an outstanding figure in this circle. He was a highly talented poet and scholar who authored dozens of extraordinary works, which have

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622